

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA O‘ZARO BOG‘LIQLIK

Abdig‘aniyeva Farangiz

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 1- kurs talabasi

Annotasiya . Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalari, uning boshqalardan ajralib turadigan jihatlari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Hamda hikoyalarning bog‘liqlik jihatlari xususida so‘z yuritiladi .

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, hikoya, qissa ,asar, ijod, o‘zgarish, adib, ijodiylik, hayot, real voqealar.

Abstract. This article discusses the stories of Abdulla Qahhor, their distinguishing features from others. It also discusses the interconnectedness of the stories.

Keywords: Abdulla Qahhor, story, short story, work, creativity, change, writer, creativity, life, real events.

Аннотация. В статье рассматриваются рассказы Абдуллы Каххора, их отличительные особенности от других произведений. Также рассматривается взаимосвязь между рассказами.

Ключевые слова: Абдулла Каххор, рассказ, новелла, произведение, творчество, перемены, писатель, творчество, жизнь, реальные события.

Adabiyotning yirik namoyondalaridan biri bu Abdulla Qahhor hisoblanadi . Abdulla Qahhor umri davomida deyarli barcha janrlarda qalam qoralagan ijodkordir.Uning o‘nlab hikoyalari , feleton , qissalari mavjud. Masalan " O‘g‘ri" hikoyasini tahlil qiladigan bo‘lsak , unda o‘tgan zamondagi muammolardan biri yoritilgan.O‘sha paytdagi adolatsizlik , nohaqliklar yuzaga chiqarib ko‘rsatilgan .Ellik boshi , Qozikalon kabi personajlar salbiy xarakterni ifodalagan . Negaki oddiy bir inson deyarli hech narsasi yo‘q Qobil bobodan ham uning musibati tufayli foydalanmoqchi bo‘ldi va shunday ham qildi . Bu voqea tufayli shuni anglash mumkinki , o‘sha vaqtlar ham hozirda ishlatiladigan " korrupsiya" tushunchasi mavjud bo‘lgan .

Yana " Mayiz yemagan xotin " hikoyasini ham keng qamrovda tahlil qilsak bo‘ladi. Mazkur hikoyada kinoyaviy uslub,badiiy tasvir ,ayol obrazi tahlil qilinadi.Hikoyada "Mayiz yemagan xotin " o‘zini boshqa ayollar ustun ko‘radi, o‘zini or - nomusli qilib ko‘rsatadi. Lekin bu ko‘rinish orqasida riyokorlik , ikkiyuzlamachilik yashiringan. Abdulla Qahhor bu narsani ochiqchasiga yoritmasdan o‘zining mahoratidan foydalanib yumor orqali buni yuzaga chiqaradi.Yozuvchi bu ayol orqali boshqa

o‘zini " "to‘g‘ri" deb biladigan insonlarni ham ifodalagan. Ayolning mayiz yetmaganligi faqat o‘zini oqlash vositasi bo‘lgan. Bu bilan u amal bilan gap o‘rtasidagi tafovutni tanqid qiladi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi milliy qadriyatlarni sun‘iylashib borayotganligida e‘tibor qaratadi va o‘quvchini achchiq kulgu orqali chuqur o‘y , mulohazaga chorlaydi.

"Ochiq xotin-qizlarning har bir harakatidan mulla Norqo‘zi buzuqlikka dalolat kiladigan talay belgilar topadi. «Yetti qavat parda ichida» o‘tiradigan o‘z xotini esa bular qarshisida ko‘ziga farishta bo‘lib ko‘rinadi: namoz o‘qiydi, to‘pig‘idan yuqorisini ovrat hisoblab, jiyakli ishton kiyadi..." bu jumlar orqali har bir inson uning xotinini siz ham " farishta deb o‘ylagning tayin . Lekin oxiriga kelib bu fikringiz uchun afsuslanganingiz aniq. Bu ham bir tomondan yaxshi chunki boshidan har bir personaj qanaqaligi ochiq aytilganida hikoyani qiziqish bilan o‘qimasdingiz . Oxirida tubdan o‘zgarish bo‘lishi hikoyani yana qayta - qayta qiziqish bilan o‘qishga yana va yana mulohaza qilishga chorlaydi.